

**FUQAROLIK SUD ISH YURITUVIDA TARJIMON XIZMATIDAN
FOYDALANISH**

Ibragimova Rayxon Shodmon qizi,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta lim" fakulteti

Biznes huquqi" yo nalishi

magistratura bosqichi talabasi.

E-mail: rayxonibragimova135@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda fuqarolik sud ishlarini ko'rib chiqish jarayonida tarjimon xizmatlarining huquqiy asoslari va amaliy ahamiyati asosida odil sudlovni ta'minlash masalasi tahlil etilgan. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (FPK) asosida tarjimon xizmatlarining sud jarayonidagi o'rni, ularning adolatli sudlovni ta'minlashdagi roli va mavjud muammolar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tarjimonlarning malakasi, xolisligi va jarayondagi ishtiroki bilan bog'liq dolzarb masalalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *tarjimon, til to'siqlari, maxsus bilimlar, protsessual majburiyatlar, texnologiya.*

Bugungi kunda sud protsessida tarjima masalalari tarjimonlar hamda huquqshunoslar e'tiborida katta ahamiyatga ega sanaladi. Sababi, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi hududida uzoq muddatdan beri yashayotgan xorijiy fuqarolar (mehnat muhajirlari, xorijiy talabalar) soni ortib bormoqda va afsuski, ular vaqtı-vaqtı bilan sud protsessida ishtirok etishi talab qiladigan vaziyatlarga tushib qolishmoqda. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 63-moddasiga binoan, Kodeksda nazarda tutilgan hollarda sud tomonidan tayinlangan tarjima qilish uchun zarur bo'lgan tillarni biladigan shaxs tarjimondir. Sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari tarjimon vazifalarini o'z zimmasiga olishga haqli emas deb belgilangan.

Fuqarolik protsessida odil sudlovni ta'minlashda har bir ishtirokchining o'z huquqlarini to'laqonli amalga oshirishi muhimdir. Til to'siqlari esa ushbu huquqni





cheklovchi omillardan biridir. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining 11-moddasiga ko'ra¹, sud jarayonida ishtirokchilar o'z ona tilida yoki o'zlari biladigan tilda ishtirok etish huquqiga ega. Bu huquqni ta'minlashda tarjimon xizmatlari muhim ahamiyatga ega.

Huquqshunoslar hamjamiyatida mutaxassislar sud jarayoniga tarjimonlarni jalg qilish bilan bog'liq quyidagi muammolarni ajratib ko'rsatmoqdalar: "sud tarjimoni" tushunchasining aniq ta'rifi mavjud emasligi, sudda tarjimon faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikdagi bo'shliqlar, sud jarayonida ishtirok etadigan tarjimonlarni, ayniqsa kam uchraydigan tillar bo'yicha topishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar, tarjimonlarni sertifikatlash masalasi, ularning xizmatlarini to'lashdagi muammolar. Fikrimizcha, ushbu muammolarni hal qilishda sud tarjimonlarini maxsus tayyorlash va ularning faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish zarur.

Qonunchiligidan ko'ra, sud jarayonida tilni bilmaydigan shaxslar uchun tarjimon jalg qilinishi shart. Tarjimonlar sud tomonidan tayinlanadi va ularning xolisligi, malakasi hamda majburiyatları qonun bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni-Konstitutsiyada bevosa tarjimon bilan ta'minlash masalasi belgilanishi bu, fuqarolik protsessida sudda ishtirok etuvchi shaxslarga boshqa tillarda ishtirok etish huquqini kafolatlaydi².

Fuqarolik protsessual qonunchilikka ko'ra, tarjimon quyidagi protsessual huquqlarga ega hisoblanadi:

tarjimani aniqlashtirish maqsadida sud majlisi ishtirokchilariga savollar berish;

agar tarjima qilish uchun tegishli bilimga ega bo'lmasa, sud muhokamasida ishtirok etishni rad etish;

sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish;

sud majlisi bayonnomasiga kiritilgan tarjimaning to'g'riligi yuzasidan e'tirozlar taqdim etish.

¹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018-y., 02/18/FPK/0612-son.

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.



Tarjimon yuqorida belgilangan huquqlar bilan bir qatorda bir qancha quyidagi protsessual majburiyatlarga ham rioya qilishi lozim:

Tarjimon tarjimani to'liq va to'g'ri amalgalashuvga oshirishi, sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart. Tarjima qilishdan asossiz ravishda bosh tortganlik, shuningdek sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra sudning chaqirushi bo'yicha kelmaganlik uchun tarjimon ushbu Kodeksning [146-moddasida](#) belgilangan tartibda jarimaga tortiladi. Muhim jihatni, jarima solinishi tarjimonni sudga kelish va tarjima qilish majburiyatidan ozod etmaydi. Tarjimon bila turib noto'g'ri tarjima qilganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining [238-moddasiga](#) muvofiq jinoiy javobgar bo'ladi, bu haqda u sud tomonidan tilxat olib ogohlantiriladi.

Bugungi globallashuv jarayonida davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy aloqalar tobora kuchayib bormoqda. Shu bilan birga, fuqarolar, ayniqsa, chet el fuqarolari turli mamlakatlarda doimiy yoki vaqtincha yashab, u yerda ishlash, o'qish yoki boshqa faoliyatlar bilan shug'ullanmoqda. Bu esa fuqarolik sud ishlarida ko'plab tilli ishtirokchilar, ya'ni davlat tilini bilmaydigan shaxslar paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Shu sababli fuqarolik protsessida tarjimon xizmatidan foydalanish zaruriyati tobora ortib bormoqda.

Olima Sandra Hale fikriga ko'ra, tarjimonlar ko'pincha guvohlarning asosiy yetkazmoqchi bo'lgan fikrining ma'nosini to'g'ri yetkazish uchun protsessda qatnashadi, lekin ular nutq uslubini (stilini) o'zgartirishi mumkin. Bu esa sud qarori asosiga salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidlaydi³.

Tarjimonning protsessual huquq layoqati ish yuritish doirasida ma'lum tarzda qatnashadigan zarur tilni va sud ishini yuritish tili, ya'ni davlat (o'zbek) tili, qoraqalpoq yoki muayyan hudud aholisi gaplashadigan tilini yuqori darajada bilish zarurati bilan cheklanadi. Odil sudlovni amalgalashuvga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarning protsessual huquq layoqatining mazmuni, ishda

³ Sandra Hale. How faithfully do court interpreters render the style of non-English speaking witnesses' testimonies? A data-based study of Spanish—English bilingual proceedings. Sage Publications, 2002.



ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual huquq layoqati mazmunidan torroq, chunki ular ancha keng protsessual huquq va majburiyatlarga, xususan, nizo predmeti bo'yicha tasarruf etish, voz kechish, kelishish huquqlariga ega. Shaxs sudning ajrimi bilan tarjimon sifatida jalb etiladi, protsessning boshqa ishtirokchilari, hatto zarur tillarni bilsalar ham, tarjimonlik vazifalarini bajarish imkoniyatidan mahrum qilingan⁴.

Tarjimonning ishtiroki protsessual jarayonlarning to'g'ri yuritilishini, taraflar o'rtasidagi muloqotning aniq va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa taraflarning sudga bergan izohlari noto'g'ri talqin qilinmasligini, dalillar, arizalar va rad javoblari to'liq va mohiyatga mos tarjima qilinishini, sud qarorlarining to'g'ri tushunilishini kafolatlaydi. Shunday qilib, tarjimon xizmatining mavjudligi fuqarolik ishlarining halol, anqlikda va qonuniy asosda yuritilishiga xizmat qiladi.

Tarjimon xizmatidan foydalanish nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro huquqiy normalar bilan ham mustahkamlangan. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, shuningdek, Yevropa inson huquqlari konvensiyasi kabi hujjatlar til bilmaydigan shaxslarga tarjima orqali odil sudlovni ta'minlashni majburiy deb hisoblaydi. O'zbekiston Respublikasi ushbu xalqaro konvensiyalarining ishtirokchisi sifatida bu talablarni bajarishi va sud amaliyotiga joriy qilishi lozim. Aytish joizki, tarjimonning sahnadagi nutq uslubini (tone, register, ma'no) to'liq yetkazish zarurligini, bunday yondashuv adolatli va teng sudlovni ta'minlashga xizmat qiladi⁵.

Fuqarolik protsessida tarjimon xizmatlaridan foydalanishda bir qator muammolar mavjuddir. Ko'pincha tarjimonlarning huquqiy terminologiyani yetarli darajada bilmasligi noto'g'ri tarjima va tushunmovchiliklarga olib keladi. Tarjimonlarning sud jarayonida xolis bo'lishi talab qilinsa-da, amalda bunday holatlar har doim ham ta'minlanmaydi. Tarjimon xizmatlarining moliyaviy

⁴ Рыжаков А.П. Лицо, участвующее в арбитражном процессе в качестве переводчика Юрисконсульт. -2013. N: 4. - С.3.

⁵ Ran Yi. Linguistic Equity Through a Court Interpreter in Australia. // Springer Nature / International Journal for the Semiotics of Law, 2024.



ta'minoti va malakali mutaxassislarning yetishmasligi jarayonni kechiktirishi mumkin.

Bundan tashqari, tarjimonning alohida protsessual huquqiy layoqati sifatida, birinchidan, ishni ko'rish jarayonida tarjima qilish uchun lozim bo'lgan tilni bilishi kerakligi, bu borada M.S.Shakaryan tilni bilish yuridik terminologiyani bilishni ham anglatishini ta'kidlagan, ikkinchidan, tarjima lug'at va boshqa zarur vositalardan foydalanmasdan amalga oshirilganda tarjimon tilni mukammal bilishi kerakligini to'g'ri ta'kidlagan. Boshqacha qilib aytganda, tarjimon yuqori kasbiy malakaga ega bo'lishi kerak.

Xorijiy tajribaga nazar tashlasak, masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida sud tarjimonlari uchun maxsus sertifikatlash tizimi joriy etilgan bo'lib, bu tarjima sifatini oshirishga xizmat qiladi⁶. Fuqarolik protsessida tarjimon xizmatining dolzarbliги oshgan sari, amaliyotda sud jarayonlariga mos malakali tarjimonlarni topish, tarjimonlarning faoliyatini tartibga soluvchi aniq me'yoriy hujjatlarning yetishmasligi, tarjimonlarning malakasini aniqlash va sertifikatlash tizimining rivojlanmaganligi va ularning mehnat haqi va protsessual huquqiy maqomining noaniqligi kabi muammolarni ham yuzaga kelishini qayd etishimiz lozim.

Xulosa qiladigan bo'lsak, fuqarolik protsessida ishtirokchilarning huquqlarini himoya qilish va odil sudlovnii ta'minlash zamonaviy huquqiy tizimlarning asosiy prinsiplaridan biridir. Ko'p millatli va ko'p tilli jamiyatlarda, masalan, O'zbekiston Respublikasida, sud jarayonida til to'siqlari jiddiy muammo sifatida yuzaga keladi. Shuningdek, fuqarolik protsessida tarjimon xizmatlari odil sudlovnii ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekiston qonunchiligida ushbu xizmatlarning huquqiy asoslari mavjud bo'lsa-da, amaliy muammolar sifat va samaradorlikni oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu tezisda fuqarolik protsessida tarjimon xizmatining huquqiy asoslari, amalda mavjud muammolar atroflicha o'rganildi. Tarjimon xizmatidan foydalanish nafaqat ishtirokchilarning o'z huquqlarini to'laqonli amalga oshirishiga yordam beradi, balki sud qarorlarining adolatli va aniq bo'lishini ham ta'minlashga xizmat qiladi.

⁶ EU Directive 2010/64/EU on the right to interpretation and translation in criminal proceedings, 2010.

Adabiyotlar/Литературы/References



1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018-y., 02/18/FPK/0612-son.
3. Sandra Hale. How faithfully do court interpreters render the style of non-English speaking witnesses' testimonies? A data-based study of Spanish—English bilingual proceedings. Sage Publications, 2002.
4. Рыжаков А.П. Лицо, участвующее в арбитражном процессе в качестве переводчика Юрисконсульт. -2013.
5. Ran Yi. Linguistic Equity Through a Court Interpreter in Australia. // Springer Nature / International Journal for the Semiotics of Law, 2024.
6. EU Directive 2010/64/EU on the right to interpretation and translation in criminal proceedings, 2010.